

“PADARKUSH-O’ZBEK DRAMACHILIGINING DASTLABKI NAMUNASI SIFATIDA”

Jo‘ramirzayev Diyorbek Erkin o‘g‘li

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

O‘zbekiston, Toshkent shahri

joramirzayevdiyorbek02@gmail.com

Annotation: Jadid adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo’lgan Mahmudxo‘ja Behbudi shaxsi haqida gap ketganda, uning xalq va millat uchun qilgan xizmathlarini shunchaki gapirib bo’lmaydi. Negaki uning mashaqqatli kechgan hayot yo‘li, siyosiy ilmiy faoliyati sermazmun va serqirradir. Ushbu maqolada ham adibning ilk dramasi “Padarkush” haqida to’xtalib otilgan. Unda asarning ma’no mazmuni, mavzu doiralari va jamiyat uchun manfaatli g’oyalari tahlil etiladi.

Kalit so’zlar: teatr, ma’rifat, ta’lim va tarbiya, boylik, fofia, ilmsizlik, jadid, birlik.

Аннотация: Говоря о Махмудходже Бехбуди, занимающем особое место в джадидской литературе, нельзя просто говорить о его заслугах перед народом и нацией. Ведь его нелегкий жизненный путь, политическая научная деятельность богаты и красочны. Также в этой статье говорится о первой драме писателя «Падаркуш». В нем анализируется смысл произведения, объем темы и идеи, полезные для общества.

Ключевые слова: театр, просвещение, образование и воспитание, богатство, трагедия, невежество, современность, единство.

Annotation: When talking about Mahmudhoja Behbudi, who has a special place in Jadid literature, one cannot simply talk about his services to the people and the nation. After all, his difficult life path, political scientific activity is rich and colorful. This article also talks about the writer's first drama "Padarkush". It analyzes the meaning of the work, the scope of the subject and the ideas beneficial to the society.

Key words: theater, enlightenment, education and upbringing, wealth, tragedy, ignorance, modernity, unity.

O‘zbek milliy dramaturgiyasining shakllanishi XX asrning o‘ninchiligi yillari Turkiston madaniyat tarixida yangi o‘zbek milliy teatrning boshlanish davri bo’lgan. O‘zbek millatining ozodligini, erkini orzu qilgan jadid ziyorilari ma’rifatning targ‘ibotini teatrda deb bilishgan. Negaki bu ma’rifatparvar bobolarimiz so‘zning qudrati, millatning kelajagiga ishonch, yoshlarimizga murojaat sifatida o‘z asarlarida keltirib o’tgan. Bu jadidlarning (Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Avloniy Lutfilla Olimiy, Muhammadsharif So‘fizoda, Ashurali

Zohiriy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy-Ajziy) tinmasdan qilgan harakati natijasida yuzaga kelgan. Turkistonga rus, tatar, ozarbayjon teatrlarining kirib kelishi o'zbek milliy san'atining shakllanishiga turki bergen. Teatr masalasiga qiziqish 1910-yillardan boshlangan. Turkistonda jadidchilik harakatining bonysi, o'zbek teatriga dastlabki tamal toshini qo'yib bergen dramaturg, noshir Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi uning asarlari orasida alohida ahamiyatga ega. Asar hajman qisqa bo'lishiga qaramay, mazmunan sodda va tushunarli tilda yozilgan. Asar jaholot va nodonlik, o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida. Bu haqida gap ketganda millat farzandlarini ziyoli ko'rish, ularni o'qitish, ma'rifatli qilish, jamiyat uchun kerakli bo'lgan farzand bo'lishga harakat qilish o'rniga, bu kabi ezgu amallardan bosh tortgan kishilarning qismati haqida hikoya qilinadi. Behbudiy ushbu asar orqali o'sha davr siyosatining g'oyasi, insonlarda milliy o'zlikni yetishmasligi, faqatgina hayotni mol-davlatdan iborat ekanligi, boylik ba'zi bir insonlarning ko'zini ko'r qilib qo'yganini, ta'lim-tarbiya orqali mamlakatni rivojlantirish mumkinligini hamda turkistonlik yoshlarning ilm olishdan bosh tortishlari qanday oqibatlarga olib kelishi ko'rsatib berilgan. Asar o'qilishi davomida juda yengil hazm qilinadi. Ma'no mundarijasi ancha keng, unda ilgari surilgan muammolar ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat va qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas'uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta'sirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarni o'z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlarlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, ilmni qadriga yetish, faqat boylik orqasidan quvlash, to'g'ri yo'ldan adashish oila boshiga chinakam kulfat keltirishini adib asarda to'la qonli tushunarli tilda yoritib berilgan. Ushbu davrda Turkistonning asosiy fojiasi bu millatni ongsizligi, o'z fikriga ega emasligi, o'z fikriga ega bo'lgan ziyolilarni esa yo'q qilish payiga tushgan sho'ro hukumati edi. Chunki ziyolilarga erkinlik berilsa, qolgan uyqudaga millatni ham uyg'otib o'zimizga qarshi chiqadi degan qo'rquv bilan ularni ijtimoiy hayotdan uzishga harakat qilishadi. Jadidlar jamiyatni rivojlantirish omili, birinchi navbatda, ma'rifatga, ta'lim tarbiyaga bog'liq ekanligini yaxshi anglab yetgan edilar. Shu tufayli "Padarkush" dramasida bu yetilgan, hayotiy muammo eng dolzarb masala sifatida kuyunchaklik bilan ko'rsatiladi. Fikrimizni tasdiqlash maqsadida ayrim misollarga to'xtalib o'tsak:¹

¹ Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jaded matbuotini o'rganishning dolzarm masalalari xalqaro ilmiy-amali konferensiya materiallari. Toshkent-2022, "Yoqt Print"

“To'y va taziyaga sarf qilinaturgan aqchalarimizni biz Turkistonlilar ilm va din yo'liga sarf etsak, qariyib Ovropaliklardek taraqqiy etamiz va o'zimizda dinimizda obro'y va rivoj topar. Yo'q hozirgi holimizda davom etsak din va dunyoga zalolat va masnunatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur”

“Maktab va madrasalar ochmoqqa, jamiyat va shirkatlik tijoratxonalar ta'sis etmoqqa harakat etaylik. Rossiya va Ovrupa, Misr va Istambulga talaba yubormoq kerakdur. Oy Turkistonli musulmonlar boshqa nasibamiz bo'lmaydur”

“Maktab va madrasalar ochmoqqa, jamiyat va shirkatlik tijoratxonalar ta'sis etmoqqa harakat etaylik. Rossiya va Ovrupa, Misr va Istambulga talaba yubormoq kerakdur. Oy Turkistonli musulmonlar, birodarlar,! Ko'zingizni oching, majalla va jaridalarga boqib dunyoni biling”

Ma'lumimizdirki to'y va marakalarga sarf qilinadurgan aqcha ila Kavkaz, Qrim, Orenburg va Qozonga usuli ta'lim o'rghanmoq uchun bola yubormoq kerakdur”²

Keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, jadidlar diqqat e'tiborida millat ziyorolarini ko'rish, ularni jahon miqyosiga chiqishi, xalqning qoloqlikdan qutqarish kabi masalalari turgan. Dastlab yaratilgan ushbu drama ham aynan yuqoridagi g'oyalarni o'zida mujassam etgan. Domulla va Boy o'rtasida ilm va boylik qudrati xususidagi murosasiz suhbatlar konflikt darajasiga ko'tarilganda Boy “agar men o'g'limni o'qitmasam nima bo'ladi? deb so'ramaydi. Boy pul orqali hamma narsani hal qilsa bo'ladi, zamon boyniki deya bong uradi. Aksincha u o'gli kelajagi uchun ta'limga jalb qilganda, ma'rifatga yo'naltirganda bu kabi fojia ro'y bermasligi ham mumkin. Bu kabi holatga tushishida otaning ham aybi bor deb o'ylayman. Behbudiy mazkur drama orqali jaholot, fikr, dunyoqarashni o'zgartirish bilan birgalikda turkistonlik tomoshabinlar ko'nglida afsus, nadomat, tuyg'ularini uyg'otishni maqsad qilib olgan edi.” Padarkush dramasi kichik dramatik lavha bo'lishiga qaramay, u chuqur fojiaviy mazmun kasb etgan. Drama asosidagi eng muhim g'oyaviy-ijtimoiy masalalar jadidlar va ularning maqsadlari bilan uyg'unlashib ketgan. Bu asar orqali adib qaysidir ma'noda ko'zlangan maqsadlarining bir qismini amalga oshirgan. Asar o'z davrida adabiy harakatga ham turtki berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning dalili sifatida Abdulla Qodiriyning mashhur “1913-yilda yozilgan “Padarkush” pyesasi ta'sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg'onimni o'zim ham payqamay qoldim”³, degan e'tirofini eslash kifoya.

² Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. Тошкент-1999. "Маънавият"

³ Abdirashidov Zayniddin. Mahmudxo'ja Behbudi, risola. Toshkent-2022, Yoshlar nashriyot uyi

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Behbudiy asarlarining ma’no mundarijasi ancha keng, chuqur mushohadaga chorlovchi doimo dolzarb bo’lgan turli xil muammolar ko’tarilib chiqilgan. Ushbu asarlar har bir davr yoshlarini barkamol inson qilib tarbiyalashda o’z qiymatini also yo’qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdirashidov Zayniddin. Mahmudxo’ja Behbudiy, risola. Toshkent-2022, Yoshlar nashriyot uyi
2. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. Тошкент-1999. "Маънавият"
3. Qosimov Begali. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent-2002, Ma'naviyat
4. Mahmudxo’ja Behbudiy merosi va jaded matbuotini o’rganishning dolzarm masalalari xalqaro ilmiy-amali konferensiya materiallari. Toshkent-2022, “ Yoqt Print”